

## Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish

N.O.Aripova  
G.I.Ibragimova  
D.M.Yadgarova  
N.X.Usmanova  
G.A.Turgunbayeva  
TMI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holatai va uni takomillashtirish yo'nalishlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** pensiya, ijtimoiy nafaqa, ijtimoiy himoya, ish staji

## Improving the pension system

N.O.Aripova  
G.I.Ibragimova  
D.M.Yadgarova  
N.X.Usmanova  
G.A.Turgunbayeva  
Tashkent Financial Institute

**Abstract:** In this article, the current state of the pension system in our country and directions for its improvement are studied.

**Keywords:** pension, social benefit, social protection, length of service

XXI asrga kelib pensiya ta'minoti tizimini isloh etish dunyoning barcha mamlakatlari oldida tutgan dolzarb va muhim vazifalardan biriga aylandi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqib alohida kasb etadi.

Mamlakatimiz pensiya tizimini chuqur qiyosiy tahlil qilish va pensiya ta'minotining modernizatsiyalashni nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tadqiq etish ijtimoiy siyosatni manzilliligini kuchaytirishning dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikning

dastlabki yillarida bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiy munosabatlarda turg'unlik elementlarini kuchaytirib yubordi.

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti ishlab chiqarishini qisqarishi, ishsizlikni ortishi, byudjet to'lovlari va aholi daromadlarini pasayishi pensiya tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy holat, aholini pensiyaga chiqqandan so'ng munosib turmush sifatini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatgan inflyatsiyaning yuqori sur'atlari, aholi jamg'armalarini qadrsizlanishiga olib keldi. Ushbu vaziyatda pensiya tizimi aholini kam ta'minlangan qismiga nisbatan ijtimoiy muammolarni yumshatish vazifasini bajardi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakat strategiyasining asosini ham, avvalambor, inson manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq vazifalar tashkil qiladi.

Harakatlar strategiyasida "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish ko'zda tutilgan bo'lib, "... fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish"<sup>1</sup> chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Hozirgi paytda pensiya ta'minoti tizimi eng muhim ijtimoiy himoya institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat yuritishi mamlakatimizning ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan mamlakatimizda istiqboldagi demografik va makroiqtisodiy holatini o'zgarishlarni inobatga olgan holda pensiya tizimini takomillashtirib borish, pensiya tizimining nodavlat shakllarini rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratish, pensiya jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanish, pensiya tayinlashda hisob-kitob ishlarini soddalashtirish, pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashda zamonaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Davlat pensiya ta'minoti tizimi davlatning ijtimoiy ta'minotini amalga oshiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillardanoq aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularning turmush darajasini oshirish va moddiy ta'minotini mustahkamlash maqsadida davlat pensiya ta'minoti tizimini bozor mexanizmlari orqali qayta tashkil etish va takomillashtirishga oid keng tarkibiy o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda.

Pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamg'armasi uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablag'larning qat'iy maqsadli ishlatilishi, mablag'larning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

byudjetdan tashqari moliya-kredit tashkiloti ekanligi hamda ijtimoiy sug'urtaning muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar xosdir (1-rasm).



1-rasm. Pensiya tizimining asosiy xususiyatlari<sup>2</sup>

Pensiya ta'minoti iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo'qotish bilan bog'liq turli xavf-xatardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi.

Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan moliyalashtirilishi pensiya ta'minotining xususiyatli jihatidir. Shundan kelib chiqib pensiya ta'minoti tizimining oldida quyidagi maqsadlar turadi:

- fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash;
- bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash.<sup>3</sup>

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg'arish yoki ishlovchilarning ish haqining bir qismini badal ko'rinishida pensionerlar foydasiga undirish pensiya to'lovlari manbaning ishonchli asosini ta'minlaydi. Bu imkoniyat, nafaqat, emissiya yo'li bilan, balki ijtimoiy siyosat doirasida zaruriy hollarda ish haqi miqdorini joriy ish haqi va pensiya ajratmalariga taqsimlashga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bugungi kunda tadqiq etilayotgan avlodlar birdamligi, zamonaviy qayta taqsimlash tamoyiliga asoslangan pensiya tizimi ishlovchilarning tegishli moliyaviy muassasalarga xususiy pensiya jamg'armalar qilishlarini inkor etmaydi.

Ayniqsa, bu borada to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbai bo'lib xizmat qilishi mumkinligini e'tirof etishimiz zarur.

<sup>2</sup> Abdurahmonov Q.X., Abdurahmanov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari. O'quv qo'llanma. – T.: “TDIU”, 2011. 226-b.

<sup>3</sup> Allayarov Sh.A., Toshmuxeimedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. 248-b.

Pensiya tizimiga ta'minot badallarini qayta taqsimlashning davlat mexanizmi yordami bilan individuallashtirilgan schetlardan foydalangan holda moliyaviy ta'minlash, pensiya tizimini tashkil etishning o'ziga xosligi, belgilangan yagona badallarni hisobga olgan holda pensiya miqdorini belgilash kabilar xosdir.

Umuman olganda, davlat pensiya ta'minoti o'zida fuqarolarni qarilikda, kasallik, onalik holatlarida, boquvchisini va mehnatga layoqatini to'la yoki qisman yo'qotganlikda, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlash bo'yicha konstitutsion xuquqlarini ro'yobga chiqarish usulini aks ettiradi. Ishlovchi oladigan ta'minot miqdori mehnat (ta'minot) staji, ish haqi miqdoriga, mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga bog'liq bo'ladi va amaldagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat pensiya ta'minotini tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ijtimoiy ta'minotning majburiyligi va ixtiyoriyligining birligi;
- davlat, ish beruvchi va yollanma ishlovchilarning ijtimoiy hamkorligi;
- shaxsiy daromadlar va mehnat qilish qobiliyatini yo'qotishni qoplash;
- maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish;

- ta'minot faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bilan o'zini o'zi tartibga solishning birligi;

- ijtimoiy ta'minotning asosiy subektlari hisoblangan ta'minlovchilar va ta'minlanuvchilarning o'zaro munosabati;

- iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatlilikning mutanosibli;
- fuqarolarni ta'minlashda ijtimoiy birdamlik va individual javobgarlik.

Pensiya ta'minotining eng muhim iqtisodiy funktsiyasi mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Pensiya ta'minoti - davlatning ijtimoiy ta'minot siyosatining muhim va ajralmas qismidir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy ta'minot tizimi jamiyatda ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish ijtimoiy xavf-xatarni, ya'ni ijtimoiy ta'minotning o'zaro bog'langan asosiy mustaqil shakllarini ajratishni talab etadigan himoyaning funktsional belgilarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu nafaqa va pensiyalar to'lash uchun mablag'larni shakllantirish va sarflashdagi manzillilik, shuningdek mehnat qobiliyatini yo'qotishni profilaktikalash uchun tashkiliy va moliyaviy shart-sharoit yaratish imkonini beradi.

Pensiya tizimiga sug'urta badallarini qayta taqsimlashning davlat mexanizmi yordami bilan individuallashtirilgan schetlardan foydalangan holda moliyaviy ta'minlash, pensiya tizimini tashkil etishning o'ziga xosligi, belgilangan yagona badallarni hisobga olgan holda, pensiya miqdorini belgilash kabi belgilar xosdir.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, pensiya ta'minoti tizimi - bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarni qarilik, kasallik, mehnat qobiliyatini to'la yoki qisman yo'qotish, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlanishlariga bo'lgan konstitutsion huquqlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlashi lozim bo'lgan asosiy ijtimoiy himoya institutlaridan biridir. Olinadigan mablag'lar miqdori sug'urta (mehnat) staji davomiyligi, ish haqi miqdori, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga bog'liq bo'ladi va qonun asosida tartibga solinadi.<sup>4</sup>

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llaniladigan, ijtimoiy kafolatlar tizimi va moliyaviy institutlarni tashkil qilish vositalari va tamoyillari, atamalari, ijtimoiy va kasbga oid xavf-xatarlar, sug'urta badallari va to'lovlarning ekvivalentligi, ijtimoiy xavf-xatar va sug'urta tariflarining bog'liqligi, shuningdek ushbu tizimning boshqa klassik elementlari - aholini ijtimoiy himoyalashning hayotiy muhim tartibga soluvchisi emas, balki mavhum kategoriyalar sifatida tasavvur qilinmoqda.

mamlakatimiz pensiya tizimini moliyalashtirishda ma'lum bir muommolar mavjud. Buning uchun, fikrimizcha, dastlab pensiya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish va samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish quyidagi ikki muammo bilan bog'liq:

1) Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish tartibining to'g'riligi, maqsadga muvofiqligi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganligi, yangi zamonaviy talablarga to'liq javob berayotganligi, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashuvidagi o'zgarishlarning o'zida mujassam etganligi va h.k.

2) Pensiya jamg'armasidan qilinayotgan xarajatlarning miqdori, hajmi, ko'lami, tarkibi, ularning maqsadga muvofiqligi, Pensiya jamg'armasining iqtisodiy tabiatiga, vazifalariga mos kelishi va sh.k.;

Pensiya jamg'armasi xarajatlarini moliyalashtirishda shu jamg'armaning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larning etarli emasligi bilan bog'liq. Muammoning mavjudligi, albatta, yangi me'yoriy va qonun hujjatlarining qabul qilinishi, pensiya badallarini yig'ish, uni maqsadli sarflash ustidan nazoratning kuchaytirilishi natijasida keyingi yillarda pensiya tizimining moliyaviy ta'minotini barqarorlashtirish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi, Pensiya jamg'armasi hisobidan pensiyalarni moliyalashtirishda jiddiy qarzdorlik mavjud emas, olingan kreditlar to'liq qaytarilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlarga qaramasdan, pensiyalarni to'lashga kamida uch oylik ehtiyojlarni mablag' bilan ta'minlashga etarli darajada zahira jamg'armasini tashkil etishning iloji bo'lmayapti, majburiy pensiya badallari miqdorining nisbatan yuqoriligi

---

<sup>4</sup> Li A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "TDYU", 2006. 241-b.

sababli ularni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lashning iloji bo'lmayapti va h.k.

Pensiya jamg'armasining xarajatlarini moliyalashtirish uchun chetdan jalb qilingan mablag'lar asosan boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan. Pensiya jamg'armasining xarajatlarini qoplash uchun Respublika byudjetidan berilayotgan mablag'lar o'zining ma'lum bir mazmuniga ega bo'lsa-da, biroq ularning dotatsiyalar ko'rinishida berilayotganligini, bizningcha, to'liq ma'qullab bo'lmaydi.

Pensiya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda. Fikrimizcha, quyidagi tadbirlar tizimini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchi, pensiya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu Pensiya jamg'armasi daromadlar bazasini yanada mustahkamlash yo'nalishida tegishli ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq. Bu juda murakkab masala bo'lib, u o'ziga nisbatan kompleks yondoshuvning bo'lishini taqozo etadi.

Shu munosabat bilan quyida masalaning ana shu jihatlarni bayon qilishga harakat qilamiz.

Bu o'rinda, dastlab, to'lanadigan oylik pensiya badallari miqdorining uning to'lovchilari o'rtasida sezilarli farqlarning bor ekanligini qayd etib o'tishimiz kerak. Gap bu erda ish beruvchilar va xodimlar, shuningdek, turli guruhlarga mansub bo'lgan tovar ishlab chiqaruvchilarning Pensiya jamg'armasiga to'laydigan oylik badallari miqdorlari o'rtasida katta farqlarning borligi xususida ketmoqda. Amaldagi tartibga muvofiq, Pensiya jamg'armasiga ish beruvchining ish haqi fondidan ajratmasi 24,8 foizni tashkil etadi. Ana shu iraqamni hisobga olgan holda, demak, Pensiya jamg'armasi mablag'larining 89,5 foizini ish beruvchilar to'laydilar, degan xulosani chiqarish mumkin. Bunday sharoitda ana shu nisbatni qanchalik to'g'riligi va uning ilmiy-amaliy jihatdan qay darajada asoslanganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida, xususan, AQSh va Germaniyada, bu nisbat ish beruvchilar va xodimlarning ishtiroki deyarli teng. Albatta, buni inobatga olgan holda bizda ham shunday bo'lishi kerak degan xulosaning chiqarilishi maqsadga muvofiq emas. Lekin, bizningcha, hech bo'lmaganda, yaqin kelajakda masalaning ana shu jihatiga, ozroq bo'lsa-da, e'tibor berilsa va unga muvofiq ravishda tegishli ishlarga yondoshuv o'zgartirilsa, bu masalada bozor talablariga javob beradigan tomonga katta qadam tashlangan bo'lar edi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, hozirgi paytda mamlakatimizda mavjud bo'lgan pensiya to'lanmalarining amaldagi miqdori pensiya badallari tariflarining amaldagi darajasiga to'liq mos kelmaydi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, pensiyalarning miqdori (summasi) va ish haqining miqdori (summasi)



hamda to'langan badallarning miqdori (summasi) o'rtasida kuchli iqtisodiy (moliyaviy) bog'liqlik mavjud emas. Shu sababli bu masala, fikrimizcha, Pensiya jamg'armasi daromadlar bazasini mustahkamlashning eng muhim jihatlaridan biri sifatida qaralmog'i va bu borada tegishli ishlar amalga oshirilmog'i lozim.

Mamlakatimiz fuqarolari o'zlarining jinsiy belgilari va alohida kasbiy faoliyatlariga muvofiq Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish va uning xarajatlaridan foydalanishda bir xil darajada ishtirok etmaydilar. To'liq pensiya huquqini olish uchun, amaldagi qonunchilikka muvofiq, ayollarga 20 yil va erkaklarga 25 yil davomida Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirishda ishtirok etishning o'zi etarli. Umumiy asoslarda tayinlanadigan yoshga doir pensiya erkaklar uchun 60 yosh va kamida 25 yillik mehnat stajiga ega bo'lganda va ayollar uchun esa 55 yoshga to'lganda hamda 20 yillik ish stajiga ega bo'lganda tayinlanadi. Biroq, oxirgi yillarda mamlakatimizda o'rtacha umr ko'rish ayollarda - 73 yilni va erkaklarda esa - 71 yilni tashkil etayotganligi e'tiborga olinadigan bo'lsa, Pensiya jamg'armasining xarajatlar qismida ayollarning ishtiroki hissasi erkaklarnikidan ikki martadan yuqoriroq ekanligi ma'lum bo'ladi. Buning ustiga, ularning Pensiya jamg'armasi daromadlari qismida esa ishtiroki erkaklarnikiga nisbatan ancha past. Bizning amalga oshirilgan hisob-kitoblarni natijalariga qaraganda, mamlakatimizdagi pensiyalarning o'rtacha darajasi ish haqi o'rtacha darajasining 26,2 foiziga to'g'ri kelmoqda. Tadqiqot jarayonida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, pensiya miqdorlarini tayinlash va ularni qayta hisob-kitob qilishda qo'llaniladigan ayrim koeffitsientlarda ham ma'lum bir kamchilik va xatoliklar mavjud. Chunki amaldagi tartibga muvofiq, o'rtacha pensiyaning tayanch miqdori o'rtacha ish haqining eng kamida 55 foiziga to'g'ri kelishi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, pensiya miqdorlarini belgilashda Pensiya jamg'armasining daromad qismida fuqarolarning qatnashuvini jinsiy belgilar bo'yicha baholashda ham talaygina farqlar mavjud. Masalan, ayollar qatnashuvining har bir yili 2,75 foizi (bu pensiya tayanch miqdorining 55 foizi va talab qilinadigan stajning 20 yilligidan kelib chiqadi), erkaklarniki esa 2,2 foiz darajasida (bu pensiya tayanch miqdorining 55 foizi va talab qilinadigan stajning 25 yilligidan kelib chiqadi) baholanmoqda. Shu munosabat bilan Pensiya jamg'armasining daromadlar bazasini mustahkamlash uchun bu sohada ham tegishli o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq mamlakatimiz aholisining ayrim guruhlari va toifalariga Pensiya jamg'armasining daromadlar qismini shakllantirishda ishtirok etmaslik huquqi berilgan. Aholining bunday toifalari yoki guruhlari qatoriga harbiy xizmatchilarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, aholining ko'pgina toifalari va guruhlariga mehnat stajini ikki karra hisoblash ko'rinishida imtiyozlar berilgan. Masalan, muddatli xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilarning bir yillik xizmati ikki

yillik ish tarzida hisobga olinadi. Birinchi guruh nogironlari va 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarning parvarishi, bolalar uch yoshga to'lguniga qadar ularni parvarishlash davrlarida ishlamaslik, oliy o'quv yurtlarida kunduzgi o'qish davrlari, xarbiy xizmatda xizmatini o'taganligi va boshqalar mehnat stajiga qo'shiladi. Pensiyalarga hech qanday qo'shimcha moliyaviy manbalar bilan ta'minlanmagan turli ustamalarni qo'llash amaliyoti ham keng tarqalgan. Bir vaqtning o'zida, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yoki boshqa mamlakatlarda ishlashgan shaxslar uchun majburiy badallar to'lash tartibi va miqdorini belgilaydigan qonunlar ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirishdagi muammolarning bir qismi, ko'p jihatdan, imtiyozli pensiya ta'minoti muammolariga borib taqaladi. Chunki rejali iqtisodiyotda imtiyozli pensiyalar xodimlarning ayrim toifalariga zararli mehnat sharoitlari uchun o'ziga xos tarzdagi qoplama to'lovlar shaklida mavjud bo'lgan. Ammo hozirgi sharoitda, ya'ni korxonalar ish haqi miqdori va to'lov shakllarini o'zlari mustaqil belgilaydigan bozor munosabatlari sharoitida imtiyozli pensiya ta'minotining dastlabki funktsiyasi to'liq o'z mazmunini yo'qotdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, zararli va o'ta zararli ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar hamon ilgaridagidek jamiyatda og'ir va zararli o'ta zararli mehnat sharoitlari uchun ularning salomatligiga etkazilgan ziyonni qoplashi shart deb o'ylaydilar. Aslida esa, bunday maqsadlarni ko'zda tutgan qoplama ularning olayotgan ish haqlari miqdoriga qo'shimcha ravishda qo'shilishi lozim. Bu erda masalaning boshqa bir jihati ham bor. Gap shundaki, hozirgi sharoitda, ya'ni ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar va mexanizmlarning joriy etilishi natijasida ko'pgina ish o'rinlaridagi mehnat sharoitlari, oldingidek, zararli va og'ir emas. Ba'zi bir sabablarga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub'ekt bunday texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etmayotgan bo'lsa, unda bunday korxonaning o'zi jamiyatni qo'shimcha moliyaviy yukdan ozod qilib, tegishli xodimning muddatidan oldin pensiyaga chiqishini ta'minlashi va uni belgilangan tartibda qoplashi kerak. Ishning bunday tarzda yuritilishi, bizningcha, bozor iqtisodiyotining tegishli talablariga to'liq mos keladi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, Pensiya jamg'armasi daromadlarini barqarorlashtirishning bosh omili mehnat stajining uzoq davom etishini emas, balki yuqori ish haqiga ega bo'lishni rag'batlantiruvchi mexanizm hisoblanadi. Buni biz pensiyalarning amaldagi tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish natijasida aniqlashimiz mumkin. Unga ko'ra hozirgi paytda, pensiyalarning asosiy qismi, ya'ni ularning o'rtacha 60 foizidan ortiqroq bo'lgan qismi ish haqi hisobidan shakllanayotgan bo'lsa, qariyb 22 foizga yaqin bo'lgan qismi esa talab qilinayotgan staj hisobidan tarkib topmoqda.



Mamlakatimizda Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirishda uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keyingi yillarda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ya'ni iqtisodiyotni boshqarishning nomarkazlashuvi, aholi daromadlari tabaqalashuvining o'sishi, mehnatga haq to'lashdagi tarmoq, hududiy va malakaviy farqlarning mavjudligi va h.k.lar ham hisobga olinmog'i lozim. Xususan, mamlakatimizdagi aholining demografik tarkibiy tuzilmasi o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra, dunyoning barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida qariganlar sonining aholi umumiy sonidagi salmog'i ortib borayotgan paytda, O'zbekistonda bu ko'rsatkichning o'sish sur'atlari bu mamlakatlarnikidan ancha past hisoblanadi va Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish nuqtai-nazaridan o'ziga xos bo'lgan qulay vaziyatni vujudga keltiradi. Shuningdek, aholi daromadlarining tarmoqlar va mintaqalar bo'yicha tabaqalanishi, mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti sur'atlarining yanada jadallashuvi munosabati bilan Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirishning tarkibiy tuzilmasida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda pensiya ta'minotini tashkil qilish va boshqarish tizimining tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish natijasida uning qonunchilik va ijroiya funktsiyalarini nazorat qilish bir necha davlat organlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Pensiya jamg'armasi, bank muassasalari va aloqa tashkilotlari orqali amalga oshirilayotganligini aniqlashimiz mumkin. Bulardan ko'rinib turibdiki, Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirishda bevosita daxldor bo'lgan funktsiyalarning ayrimlari, xususan, pensiya sug'urtalariga yoki pensiya badallarini yig'ishga tegishli bo'lganlari bir organga, pensiya ishlarini rasmiylashtirish - ikkinchi organga, pensiya to'lanmalarini amalga oshirish esa - uchinchi organning zimmasiga yuklangan va h.k. Bunday holatning mavjudligi, o'z navbatida, jumladan, Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning samaradorligini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuning uchun, bizningcha, bu masalaga ham ancha oydinlik kiritib olish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, Pensiya jamg'armasining mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan amaldagi xarajatlarning tarkibiga o'zgartirish kiritish zarur:

- ishlamayotgan pensionerlarga pensiyalarni to'lash;
- ishlayotgan pensionerlarga pensiyalarni to'lash;
- kommunal xizmatlarni to'lash bo'yicha pulli kompensatsiyalar;
- vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganlik, bola tug'ilganligi va h.k.lar uchun nafaqalar;
- boshqa xarajatlardan iborat.

Fikrimizcha, Pensiya jamg'armasidan moliyalashtirilayotgan xarajatlarning tarkibi faqat yuqorida keltirilganlarning dastlabki ikkisini, ya'ni ishlayotgan va

ishlamayotgan pensionerlarga pensiyalarni to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplab olish bilan cheklanishi lozim.

Pensiya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishi sifatida bunday yo'lni tutishning sabablari, bizningcha, quyidagilardan iborat:

a) Pensiya jamg'armasi va undan moliyalashtiriladigan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, tom ma'noda, ta'minlanadi;

b) Pensiya jamg'armasining iqtisodiy tabiatiga unchalik to'liq mos kelmaydigan xarajatlarning bu jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishiga chek qo'yiladi;

c) Pensiya jamg'armasi hisobidan qilinadigan xarajatlarning miqdori kamayadi.

d) Pensiya jamg'armasidan qilinadigan xarajatlarning qisqarishi natijasida, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, bu jamg'armaning o'ziga tegishli bo'lgan xarajatlarini, ya'ni ishlayotgan va ishlamayotgan pensionerlarga pensiyalarni belgilangan miqdorda va o'z vaqtida to'lash bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy imkoniyati oshadi;

“Fuqarolarni davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi, “Fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24 avgustdagi 351 sonli “Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni va dehqon xo'jaliklarining a'zolarini davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida”gi qaroriga, Pensiya jamg'armasining daromadlar bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan, belgilangan tartibda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi kerakki, avvalo, ularda bu jamg'armaning moliyaviy mablag'larini hosil qilishda, oldingi ko'zda tutilganlardan tashqari, norasmiy sektorda faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolar va o'zi bilan o'zi band bo'lgan fuqarolarning ham majburiy tarzda ishtirok etishi va faqat shu holdagina ularga qarilik, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik hollarida pensiyalarning kafolatlanishini qonuniy tarzda belgilanib qo'yilmog'i lozim. Bir vaqtning o'zida, agar fuqarolar pensiya sug'urtasiga majburiy tarzda jalb qilinmasa, u holda fuqarolarning bunday toifasiga nisbatan ixtiyoriylik va boshqa asoslarda pensiya va ijtimoiy sug'urtaning boshqa nodavlat shakllarini tashkil qilishni yo'lga qo'ymoq lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
2. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
3. Низомиддин Хайдаров, Фурқат Ҳалимов. Жисмоний тарбия ва спорт муассасалари ва уларнинг мамлакат Ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни. Иқтисодиёт ва таълим. 2020/11/26

4. Низамиддин Хайдаров. Роль таможенного дела в ускорении межгосударственных экономических отношений. Техничко-технологические проблемы сервиса, 2019
5. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001
6. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
7. Н.Хайдаров. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. Ўқув қўлланма. Тошкент: Академия, 2007
8. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Государственный бюджет. Учебное пособие "IQTISOD-MOLIYA, 2008
9. N.H.Haydarov, B.F.Azimov, F.Ehalimov. Increasing The Efficiency Of Using Sports Facilities Of Educational Institutions Of Sports. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences EpSBS. 2020
10. Хайхадаева О.Д., Хайдаров Н.Х. ПОЛИТЭКОНОМИЯ ПЕРЕХОДА К ЧИСТОЙ ЭНЕРГИИ В США. "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 4-5, август-октябрь, 2018 йил
11. N. Haydarov. Economic growth, demographics and income distribution in central asia in condition of gradual economic transition. International Scientific-Practical Conference SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN CONDITIONS OF GLOBALIZATION. XXV-a aniversări a ASEM Moldova – 2016
12. N. Haydarov. Land tenure reforms and cross-border water rights in uzbekistan: mixed effect and future consequences. Annul World bank Conference on Land and poverty. Washington DC. March 14-18 2016 year.
13. N.H. Haydarov. Improvement of financial and tax relations in the investment activity of enterprises in the conditions of economic liberalisation. Doctor of Science. dissertation abstracts for obtaining a scientific degree ..., 2003
14. N.H. Haydarov. Issues of improving financial and tax relations in the investment activities of enterprises in the context of economic liberalization. Dissertation for the degree of Doctor of Economics. Tashkent-2003
15. A.V.Vaxabov, S.A.Tashmatov, N.X.Haydarov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'planma/-Toshkent 2013
16. У.Ўроқов. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзалликлари. "Молия" журнали 2014 йил, 1-сон.
17. У.Ўроқов, И.Иргашев, О.Ғайбуллаев. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. Vaktria press, 2022
18. О.Ғайбуллаев, У.Ўроқов. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни. Тошкент: Vaktria press, 2016. -168 б.

19. И.Мамаджанов, Қ.Топаров, У.Ўроқов, О.Ғайбуллаев. Ўрта муддатли бюджет. Наманган шаҳар бюджети мисолида. Услубий қўлланма / И. Мамаджанов [ва бошқ.]. - Тошкент: Baktria press, 2017. -302 б.
20. Uroqov Uchqun, Yuldasheva Nadira, Nuritdinova Vasila, Tukhtabayeva Sogdiana. Budgetary methods for local budgets. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. DOI: 10.5373/JARDCS/V12I6/ S20201165
21. У.Ю. Уроков. Пути повышения независимости местных бюджетов. Автореферат доктора философских наук, 2020
22. Uroqov Uchqun. Increasing the independence of local budgets in the social and economic development of the regions. // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol.VII, Issue12, December 2019
23. У. Ўроқов. Давлат харидлари тизими: кеча ва бугун. «Бозор, пул ва кредит» журнали, 8-сон, 2018 й.
24. Ўроқов У.Ю. Чинқулов Қ.Р. Ўзбекистонда давлат харидларининг такомиллашувининг ҳуқуқий асослари. «Халқаро молия ва ҳисоб» журнали, 2017 йил 8-сон.
25. Уроков У.Ю., Юлдашева Н.В. Пути повышения финансовой самостоятельности местных бюджетов Республики Узбекистан // Интернаука: электрон. научн. журн. 2022. № 3(226).
26. U.Yu. O'roqov, N.M.Anvarov. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. Barqarorlik va Yetakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali (ISSN - 2181-2608). 2022
27. U. O'roqov, Tursunova Zulayho Abdujobir qizi. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 6
28. U.Yu. O'roqov, J.A.Yomg'irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 6 | Juni, 2022
29. U.O'roqov, Sh.A.Rayimqulova. O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish masalalari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5
30. U.O'roqov, O.Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 7
31. O'roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali

xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 6

32. У.Ўроқов, Д.Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 7

33. U.Yu.O'roqov, Sh.B.Abdulazizov, B.R.Amirqulov. Ta'lim tizimini moliyalashtirish amaliyoti. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 7

34. Abdug'aniyeva Xumora Baxtiyor qizi, O'roqov Uchqun Yunusovich. Davlat maqsadli jamg'armalarining iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va so'ngi yillardagi o'zgarishlar. Journal of new century innovations. Volume – 6\_Issue-7\_Iyun\_2022

35. O'roqov Uchqun Yunusovich, Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 6

36. O'roqov Uchqun, Rahimova Nozimaxon. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati. RESEARCH AND EDUCATION, 2022. Vol. 1 No. 3 (2022)

37. U. Yu. O'roqov, N.M. Anvarov. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. 2022/6/30. Страницы 466-471

38. У.Ю. Ўроқов. Ф.Ш. Сулаймонов. ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ФАОЛИЯТИДА ЭЛЕКТРОН АХБОРОТ АЛМАШИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2014 йил

39. Ўроқов У. Ю. Қишлоқ хўжалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015/12. 4-сон.

40. Ўроқов У. Ю. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020/4. 4-сон.

41. U.O'roqov, ZA qizi Tursunova. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni. Science and Education. Vol. 3 No. 6 (2022)

42. У.Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 June 2022 / Volume 3 Issue 8.

43. У.Ўроқов, Э.Шодмонов, Д.Бобобекова. Давлат харидларини бошқариш. Т.-2022 й.